

DINIY TASHKILOTLARNING ZAMONAVIY ME'YORLARGA MOSLASHUVINING AHAMIYATI

*Ilmiy rahbar: **Boymirzayeva Xurshida Sobirovna***

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.

*Talaba: **Turaxonova Malika Muzaffar qizi***

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda diniy tashkilotlarning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va ularning hozirgi davr me'yorlariga moslashuvi masalalari yoritilgan. Globalizatsiya, axborot texnologiyalari taraqqiyoti hamda ijtimoiy-huquqiy islohotlar diniy tashkilotlardan zamonaviy talablarga javob bera oladigan faoliyat yuritishni talab qilmoqda. Tadqiqotda diniy tashkilotlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya berish va diniy bag'rikenglikni rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ularning huquqiy me'yorlarga rioya qilgan holda faoliyat yuritishi, zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etishi va yoshlar bilan samarali ishlash mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Xulosa o'rnida esa diniy tashkilotlar va zamonaviy jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: diniy tashkilotlar, zamonaviy me'yorlar, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy muvofiqlik, tolerantlik, diniy bag'rikenglik, boshqaruv, yoshlar bilan ishlash.

Annotation: This research examines the role of religious organizations in modern society and highlights the importance of their adaptation to contemporary norms. Globalization, the advancement of information technologies, and ongoing socio-legal reforms require religious institutions to function in alignment with modern standards. The study analyzes the contribution of religious organizations to social stability, spiritual and moral education, and the promotion of religious tolerance. It also addresses the significance of their adherence to legal frameworks, the application of modern management principles, and the development of effective mechanisms for working with youth. The conclusion presents suggestions for achieving harmony between religious institutions and contemporary social dynamics.

Keywords: religious organization, modern standards, social stability, legal compliance, religious tolerance, management, youth engagement

Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma.

Zamonaviy dunyo – bu texnologik taraqqiyot, globallashuv, madaniyatlararo

muloqot va inson huquqlarining ustuvorligi asosida shakllanayotgan murakkab jamiyatlar yig'indisidir. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi va xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda.

Zamonaviy jamiyatda dunyoviy me'yorlar muhim o'rin tutadi. Dunyoqarash, e'tiqod va madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, davlat va dinning ajratilganligi, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish kabi tamoyillar dunyoviylikning asosi hisoblanadi. Bu me'yorlar jamiyatning barqaror rivojlanishi, tinchlik va bag'rikenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik kundalik hayotda, jamiyatda, iqtisodiy rivojlanishda, shuningdek, ish joyida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallasuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'liklik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi va boshqa jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag'rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim.

Zamonaviylik va an'anaviylik – bu ikki tushuncha ko'pincha qarama-qarshi sifatida qaraladi. Ammo aslida ular bir-birini to'ldiruvchi, uyg'unlashgan holda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omillardir. An'anaviylik – bu milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy tajribalar va avlodlar merosini o'zida aks ettiradi. Zamonaviylik esa zamon bilan hamnafas bo'lish, yangiliklarga ochiqlik, innovatsiyalarni qabul qilishni anglatadi.

Bugungi globallasuv davrida jamiyat oldida turgan muhim vazifa – bu zamonaviy taraqqiyotni an'anaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtira olishdir. Zero, har qanday yangi yondashuv, texnologiya yoki ijtimoiy o'zgarishlar milliy madaniyat asosida joriy etilsa, u ko'proq samara beradi va xalq tomonidan tezroq qabul qilinadi.

Masalan, ta'lim tizimida zamonaviy metodlar va texnologiyalar joriy etilar ekan, bu jarayonda o'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlar, til boyligi va axloqiy qadriyatlari e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Shuningdek, zamonaviy kiyinish madaniyati, me'moriy uslublar yoki san'atda ham an'anaviy uslublar bilan uyg'unlashgan holatlarda ular yanada jozibali va mazmunli ko'rinadi.

Shunday qilib, zamonaviylik va an'anaviylikning uyg'unligi – bu taraqqiyot va o'zlikni yo'qotmaslikning muvozanatidir. Bu uyg'unlik orqali jamiyat milliyligini saqlagan holda zamonga mos rivojlanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, diniy tashkilotlarning zamonaviy me'yorlarga moslashuvi jamiyatda barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ularning huquqiy me'yorlarga rioya qilgan holda faoliyat yuritishi, zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etishi hamda yoshlar bilan samarali ishlashi nafaqat diniy muhitni, balki umumiy ijtimoiy muvozanatni ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda globallashuv, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida diniy tashkilotlarning moslashuvchan, ochiq va zamonaviy fikrlovchi bo'lishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish va ularni jamiyat bilan uyg'un holda rivojlantirish – barqaror kelajak sari muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Berger, P. L. (1999). The Desecularization of the World: Resurgent Religion and World Politics. Wm. B. Eerdmans Publishing.
- 2.Casanova, J. (1994). Public Religions in the Modern World. University of Chicago Press.
- 3.Pew Research Center. (2017). The Future of World Religions: Population Growth Projections, 2010-2050.
- 4.Haynes, J. (2007). An Introduction to International Relations and Religion. Pearson Education.
- 5.Tottoli, R. (Ed.). (2020). Routledge Handbook of Islam in the West. Routledge.
- 6.Mandaville, P. (2013). Global Political Islam. Routledge.
- 7.Davie, G. (2015). Religion in Britain: A Persistent Paradox. Wiley-Blackwell.